



2021- yilning yanvar oyi uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari



Joriy yilning yanvar oyida Xorazm viloyatida jami **226,5** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **100,8 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar oyida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **5,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **99,2 %** ga koʻp bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan **0,1 %** punktga kamayib, **2,3 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da



OʻSISH SURʻATI 99,2 %

2020- yil
yanvar


2021- yil
yanvar

Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng koʻp ulushi Urganch shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **70,0 %** yoki 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **199,6 %**), Yangibozor tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **11,6 %** yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **208,0 m. %**), va Urganch tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **8,6 %**, yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan **16,2 %**) ga toʻgʻri keldi.




Qurilish ishlarining umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning yanvar oyida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **70,8 %** to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyi ko'rsatkichiga nisbatan **0,8 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning mos davriga nisbatan **100,4 %** ni tashkil etgan holda **160,3 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **26,9 %** ni tashkil etdi yoki **61,0 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan o'sish **102,1 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **13,0** mlrd. so'm, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **213,5** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,7 %** va **94,3 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2021- yilning yanvar oyida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	226,5	13,0	5,7	213,5	94,3
Urganch sh.	59,8	3,1	5,2	56,7	94,8
Xiva sh.	18,5	0,8	4,3	17,7	95,7
tumanlar:					
Bog'ot	12,4	1,4	11,3	11,0	88,7
Gurlan	13,4	1,2	9,0	12,2	91,0
Qo'shko'pir	11,7	1,0	8,5	10,7	91,5
Urganch	21,7	0,5	2,3	21,2	97,7
Hazorasp	10,1	1,0	9,9	9,1	90,1
Tuproqqal'a	6,7	0	0	6,7	100,0
Xonqa	12,0	0,6	5,0	11,4	95,0
Xiva	18,8	0	0	18,8	100,0
Shovot	15,7	1,8	11,5	13,9	88,5
Yangiariq	12,3	0,7	5,7	11,6	94,3
Yangibozor	13,4	0,9	6,7	12,5	93,3

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2021- yil yanvar**

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 67,9 % yoki **153,8** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

67,9 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **4,5** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi

2,9 %

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **94,2** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 61,3 % ni tashkil etdi.

61,3 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **55,1** mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 35,8 % ni tashkil etdi.

35,8 %




**2021- yilning yanvar oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so'm)	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so'm)
Xorazm viloyati	226,5	100,8	153,8
Urganch sh.	59,8	100,3	43,6
Xiva sh.	18,5	98,6	12,8
tumanlar:			
Bog'ot	12,4	98,0	6,7
Gurlan	13,4	100,7	9,3
Qo'shko'pir	11,7	101,0	7,4
Urganch	21,7	100,2	13,1
Hazorasp	10,1	103,3	6,2
Tuproqqal'a	6,7	103,6	4,8
Xonqa	12,0	102,0	8,3
Xiva	18,8	100,8	10,3
Shovot	15,7	100,7	11,7
Yangiariq	12,3	103,3	9,9
Yangibozor	13,4	103,7	9,7

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **0,5 %** ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **0,1 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga kamayib, **61,9 %** ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar oyidagi ko'rsatkichga nisbatan **3,7 %** punktga ko'payib, **37,6 %** ni tashkil etdi.


ulush, % da



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **7,8 %** ni tashkil etdi va 2020- yil yanvar oyiga nisbatan **7,0 %** punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **92,2 %** (**7,0 %** punktga ko'payish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **2,8 %** punktga ko'paydi va **3,6 %** ni tashkil etdi. Qolgan **96,4 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2020- yilning yanvar oyiga nisbatan **2,8 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da





**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2021- yil yanvar oyida**


mlrd. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	226,5	162,2	50,4	13,9
Urganch sh.	59,8	29,5	24,9	5,4
Xiva sh.	18,5	13,0	5,1	0,4
tumanlar:				
Bog'ot	12,4	8,8	2,5	1,1
Gurlan	13,4	10,7	1,6	1,1
Qo'shko'pir	11,7	9,4	1,9	0,4
Urganch	21,7	17,4	3,0	1,3
Hazorasp	10,1	8,5	1,5	0,1
Tuproqqal'a	6,7	5,5	1,1	0,1
Xonqa	12,0	10,0	1,2	0,8
Xiva	18,8	15,7	2,6	0,5
Shovot	15,7	11,8	1,9	2,0
Yangiariq	12,3	11,0	1,1	0,2
Yangibozor	13,4	10,9	2,0	0,5




Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari

Hududlar kesimida bino va inshootlar qurilishining ulushi, % da



Viloyatlar kesimida taqsimlanmagan ma'lumotlar


Bino va inshootlar qurilishi, jamiga nisbati, % da




Joriy yilning yanvar oyida bino va inshootlar qurilishi ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Yangiariq tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 89,4 % yoki **11,0** mlrd. so'm), shuningdek, Hazorasp tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 84,1 % yoki **8,5** mlrd. so'm) va Xiva tumanlari ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 83,5 % yoki **15,7** mlrd so'm) yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar oyida fuqarolik obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 41,6 % yoki **24,9** mlrd. so‘m), Xiva shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,6 % yoki **5,1** mlrd. so‘m), Bog‘ot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 20,2 % yoki **2,5** mlrd. so‘m) da qayd etildi.

**Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbatan, % da**



**Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da**



Joriy yilning yanvar oyida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining umumiy hajmida eng yuqori ulush Shovot tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 12,7 % yoki **2,0** mlrd. so‘m), Urganch shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 9,1 % yoki **5,4** mlrd. so‘m) va Bog‘ot tumani da (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 8,9 % yoki **1,1** mlrd. so‘m) qayd etildi.

2021- yilning yanvar oyida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mlrd. so'm

Urganch sh.

59,8



Urganch

21,7



Xiva

18,8



Xiva sh.

18,5



Ma'lumot uchun: qurilish ishlarining eng yuqori hajm ko'rsatkichi Urganch sh. (59,8 mlrd. so'm), Urganch (21,7 mlrd. so'm), Xiva (18,8 mlrd. so'm) tumanlari, Xiva shahriga (18,5 mlrd. so'm) to'g'ri keladi.





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Xorazm viloyati
Statistika boshqarmasi**

**Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Aloqa telefoni: (62)224-65-22